


Sentabr nega xafa bo'lardi?

Iris Revyu



Iris Revyu
1962

Iris Revyu 1962-yilda Yekaterinburg shahrida tug'ilgan. U bolalar uchun yozilgan ko'plab ertaklar, masallar, she'r va hikoyalar muallifi.

I. Revyu 2012-yilda "Bolalar vaqti" veb-saytini yaratib, hozirgi kungacha u yerda o'z ertaklarini joylashtirib bormoqda.



O'qing.

Bor ekan-u yo'q ekan, Sentabr oyi bo'lgan ekan. U me'yorida quyoshli, me'yorida salqin oy ekan. Odamlarni xushbo'y olmalar, shirin-shakar qovunlar, ishtahaochar noklar bilan siylay olarkan. Kun bo'yi iliq, yoqimli oftob hadya qilishi yoki sutkalab yomg'irni mehmonga chaqirishi mumkin ekan. Ko'pchilik uni "yig'loqi" deb atashsa-da, uning fe'l-atvori mehribon, yumshoq va ko'ngilchan* ekan. U izg'irinlari*, kuchli do'llari yoki holdan toydirar* darajadagi jazirama issig'i bilan odamlarni qo'rqitmaskan. Xotirjam, sipogina* oy ekan.

Ammo ba'zida u xafa bo'lib turarkan...

Bilasizmi, Sentabr nima sababdan xafa bo'larkan?

Chunki u yoz oylaridan keyin kelarkan va odamlar uning kelishini unchalik xohlashmas ekan. Unga go'yo odamlar yozning tugashini istashmayotgandek tuyularkan.

– Yo'q, bu mutlaqo noto'g'ri! – deyishibdi odamlar Sentabrga. – Biz seni salqin ob-havong, quyuq bulutlaring, qisqa kunlaring bilan ham yaxshi ko'raveramiz!

– “Kuzning qozoni quyuq qaynar”, deyishadi. Sentabr sovuq bo'lsa ham, serhosil keladi, – deyishibdi odamlar.

– “Kuzning bir kuni qishning bir oyini boqar”, – deyishibdi yana. – Axir kuzda hamma narsa g'arq pishadi-da.

– Ustiga-ustak*, sentabrda bolajonlar bilim olish, do'st orttirish uchun maktabga borishadi. Sentabrsiz qanday kun ko'ramiz?

Bu gaplarni eshitgan Sentabr juda quvonib ketibdi. So'ng yanada ko'proq harakat qila boshlabdi. Daraxt barglarini tilla, alvon* va binafsha ranglarga bo'yabdi. Qushlarni uzoq safarga kuzatibdi. Bog'lar, dalalar, polizlarda mo'l-ko'l hosil bilan dillarni quvontiribdi. O'zining ikkinchi yarmidagi iliq kunlari bilan faxrlanibdi. Bunday iliq kunlar xalq orasida “Xazonrezgi kunlar” deb atala boshlanibdi. Shundan buyon Sentabr mamnuniyat bilan tashrif buyuradigan, odamlar ham uni har yili intiqlik bilan kutadigan bo'lishibdi.





ko'ngilchan – yuvosh, itoatkor
izg'irin – juda sovuq shamol
holdan toydirmoq – qattiq
 charchatmoq
sipo – og'ir, vazmin, bosiq
ustiga-ustak – buning ustiga
alvon – qip-qizil, qirmizi



1. Asarning bosh qahramoni kim?
2. Sentabr oyi nima uchun pishiqchilik oyi deyiladi?
3. Sentabr nima sababdan xafa bo'lardi?
4. "Xazonrezgi kunlar" nima degani?
5. Matnda qanday maqollar uchradi? Ularni topib o'qing va ma'nosini tushuntiring.
6. Nima deb o'ylaysiz, muallif nega oy nomini bosh harf bilan yozgan?
7. Bu asar ertakmi yoki hikoya? Nima uchun?



P.I.Chaykovskiyning "Yil fasllari. Sentabr" nomli musiqiy asarini tinglang va savollarga javob bering.



1

1. Ushbu musiqiy asar insonga qanday kayfiyat bag'ishlaydi?
2. Musiqani tinglayotganda ko'z oldingizda qanday manzara gavdalandi?
3. Asarning qaysi qismi sizda eng yorqin va unutilmas taassurot qoldirdi?
4. Bu musiqiy asarni sentabr oyida sodir bo'ladigan voqea yoki hodisalar bilan bog'lash mumkinmi?